O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti rektori
_______ A.U.Sattarov
2024 yil "___" ___________

# AMALIY GRAMMATIKA VA FONETIKA

## FAN DASTURI

1-kurs kunduzgi ta'lim uchun

**Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 230000 – Tillar

**Ta'lim yo'nalishi:** 60230100- Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

Termiz– 2024

| Fan/modul kodi<br>AGF11-210 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>1/2 | ECTS - Kreditlar<br>6/4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>Ingliz, o'zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>6/4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Amaliy grammatika va fonetika | 90/60 | 90/60 | 300 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – xorijiy tilni o'rgatishda fundamental ahamiyat kasb etgan holga, talabalarga kasbiy yo'nalish doirasida asosiy grammatik qoidalar hamda to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rgatish, tilning og'zaki va yozma shakllarini o'rgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o'rganilayotgan chet tilining funktsional shakllari va uslublarini, til to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir. Amaliy grammatika va fonetika modulini o'zlashtirish asosida talabalarni tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarning o'rganilayotgan chet tilini egallashlari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan tarzda o'rgatish va mulogot malakalarini rivojlantirish.

**II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)**

Amaliy grammatika va fonetika va fani o'z ichiga quyidagi mavzu va til materiallarini qamrab oladi:

***Amaliy grammatika qismi:***

- o'rganilayotgan chet tilining grammatik tuzilishi.
- morfologiya va sintaksisning o'zaro aloqalari.
- grammatik kategoriyalar.
- so'zlarni tasnif qilish, so'z turkumlari.
- fellarning tuslanish guruhlari.
- aniq va majhul nisbatlar.
- mayl va zamon.
- sodda va qo'shma zamonlar.
- zamonlarning moslashuvi.
- fe'llarning birlik va ko'plik shakllarining ifodalanishi va ularning shaxslari.



- fe'lning shaxssiz shakllari: infinitiv, hozirgi zamon sifatdoshi, o'tgan zamon sifatdoshi, ravishdosh.
- shaxssiz qurilma.
- fe'lning sintaktik vazifasi.
- ot so'z turkumi va ularning turlari.
- otning grammatik kategoriyalari.
- ko'plik formasining yasalishi.
- otlarning ko'plik shaklini yasashda ulardagi orfografik va fonetik o'zgarishlar.
- artikl, olmosh va determinativlarning roli.
- artikl va uning turlari.
- sifat so'z turkumi va uning turlari.
- sifatning grammatik kategoriyalari.
- sifatlarning qiyosiy darajasi.
- sifatning gapdagi o'rni.
- sifatlarning sintaktik vazifalari.
- olmosh so'z turkumi va uning turlari.
- olmoshlarning fe'l oldida qo'llanish tartibi va ularning turlari.
- olmoshning gapdagi vazifasi.
- ravishning ma'nosiga va shakliga ko'ra tavsifi.
- ravishning sintaktik vazifasi.
- ko'makchilarning turlari va vazifasi.
- bog'lovchilar turlari va qo'llanish usullari.
- asosiy sintaktik bo'laklar, so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap.
- so'z birikmasi.
- sodda gap.
- bosh va ikkinchi darajali bo'laklar.
- gapning asosiy belgilari – kesim va ohang.
- gaplarni tasnif qilish.
- bo'lishli va bo'lishsiz gaplar.
- gap bo'laklari o'rtasida sintaktik aloqaning ifodalanish yo'llari; so'z tartibi, moslashish, birikish, boshqaruv, ko'makchilar, bog'lovchilar va ohang.
- gapning asosiy bo'laklari.
- ikkinchi darajali bo'laklar.
- vositali va vositasiz to'ldiruvchi.
- gapning ikkinchi darajali bo'laklarining ifodalanish usullari.
- so'z tartibi.
- qo'shma gap va uning turlari.
- bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap.
- ergash gapli qo'shma gap.



CamScanner

| | |
|---|---|
| | - ergash gaplarda sinonimik konstruktsiyalar.<br>- ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning ishlatilishi va berilish yo‘llari.<br>***Amaliy fonetika qismi:***<br>- nutq tovushlari, nutq oqimi, intonatsiya, talaffuz tizimlari, uslublari.<br>- nutq tovushlaming uch tomonlama xarakteri: akustik, artikulyatsion va lingvistik.<br>- nutq tovushlarining akustik xususiyatlari: balandlik, kuchlilik, tembr, cho‘ziqlik.<br>- tovushlarning shovqin (undosh) va musiqaviy ton (unli)larga bo‘linishi.<br>- nutq tovushlarining artikulyatsiyasi: talaffuz (nutq) apparati.<br>- tovush hosil bo‘lish faza (davr)lari: nafas chiqarish, ovozning hosil bo‘lishi, nutq organlarining muayyan holatga qo‘yilishi (artikulyatsiya).<br>- artikulyatsiya fazalari: kirishish (nutq organlarining muayyan holatga qo‘yish), saqlash (qo‘yilgan qolatni tutib turish), qaytish (tutib turilgan holatning buzilishi, ya’ni boshqa holatga o‘tishi).<br>- aktiv va passiv nutq organlari.<br>- tilning artikulyatsiya bazasi.<br>- fonema tushunchasi: fonema va tovushning o‘zaro munosabati.<br>- fonetik yozuv (transkriptsiya), tilning talaffuz normasi (orfoepiya).<br>- grafika va orfografiya.<br>- o‘rganilayotgan chet tilining artikulyatsiya xususiyatlari.<br>- unlilar artikulyatsiyasining xususiyatlari va tasnifi.<br>- tarixiy va ritmik cho‘ziqliklar.<br>- burun unlilarining nazalizatsiyalashuv xarakteri.<br>- undoshlar va ularning xususiyatlari.<br>- yarim undoshlar (yoki yarim unlilar).<br>- nutq oqimi tushunchasi, nutq oqimi birliklari: artikulyatsion birliklar (bo‘g‘inlar) va aktsent-semantik birliklar (ritmik guruh va sintagma).<br>- bo‘g‘inning yasalishi, bo‘g‘in qosil qiluvchi va bo‘g‘in hosil qilmaydigan tovushlar.<br>- nutq oqimida tovushlarning birikish hodisalari.<br>- intonatsiya va uning tarkibiy qismlari<br>- tilda urg‘uning o‘rni.<br>- assimilyatsiya hodisasi va turlari.<br>- talaffuz uslub (stil)lari. |
| **3.** | **III. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**<br>1. Types of nouns<br>2. Plural form of nouns<br>3. Ways of talking about the future |



| | |
|---|---|
| | 4. Adjectives and word order<br>5. Adverbs and word order<br>6. Present Perfect tense<br>7. Modal verbs: have to, must, should<br>8. Preposition and its types<br>9. Phrasal verbs<br>10. Modal verbs of deduction<br>11. Reported speech<br>12. Passive voice<br>13. Formal and written English<br>14. Word order and sentence patterns<br>15. Articles<br>16. Quantifiers<br>17. The voiced and unvoiced “TH”<br>18. Consonant and pairs<br>19. The 50 most mispronounced words<br>20. The 10 key steps towards improvement. |
| **4.** | **IV. Fan o ‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• o‘rganilayotgan asosiy chet tilini Umumevropa standartlariga ko‘ra B1 darajada o‘zlashtirishi;<br>• organilayotgan chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlarini bilish va qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallashlari;<br>• o‘rganilayotgan chet tilida og‘zaki va yozma nutg ko‘nikmalarini egallashi;<br>• tushunish va muhokama qilish uchun bosqichma-bosqich turli til materiallari bilan ishlash usullari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;<br>• o‘z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs modullari va ularning mavzularidan kelib chiqgan holda mantiqiy bayon etishi;<br>• chet tilidagi og‘zaki va yozma shakldagi ma‘lumotlarni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>• chet tilining fonetik va grammatik strukturalariga oid bazaviy va kommunikativ jarayonda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklari va qonuniyatlarini bilishi va ularni nutq jarayonida qo‘llay olishi;<br>• chet tilida chop etilgan turli matbuot materiallari va axborot beruvchi boshqa vositalardan olingan autentik til materiallarini tushuna olish va ularni tahlil qilish;<br>• o‘rganilayotgan chet tilida o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish;<br>• bitiruv malakaviy ishini yozish, ilmiy ishni olib borish bosqichlari, yozish uslublarini tog‘ri qo‘llash va ilmiy matnni tahrirlash borasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. |



CamScanner

| | |
|---|---|
| 5. | **V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- interfaol keys-stadilar;<br>- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>- guruh, mikroguruh bo lib ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 6. | **VI. Kreditlarni olish uchin talablar:**<br>Talabalardan til kompetentsiyalariga va modullar mazmunini aks ettiruvchi asosiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, ya'ni chet tilida og'zaki nutqni tushunish, o'z fikrini chet tilida bayon qilish, o'qish va yozish mahoratini namoyon qilish, chet tilining grammatik va fonetik qonuniyatlarini, tili o'rganilayotgan va chet tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniyatini anglash hamda chet tilida chop etilgan turli matbuot manbalaridagi autentik materiallarni tushuna olish talab qilinadi.<br>Fan doirasida talabalar Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetentsiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR)ga ko'ra kurslar kesimida A2 - Cl darajaga mos keladigan til materiallarini tushunish, mazmunini tahlil qilish, mavzularga oid turli matn turlarini o'qib, tinglab mazmunini tushunishlari va o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ifoda eta olishlari shart. |
| | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Mark Foley MyGrammarLab (Intermediate B1-B2). Pearson Education Press 2011.<br>2. John and Lis Soars. New Headway Elementary Fourth edition, (Student's book). Oxford University Press.<br>3. John and Lis Soars. New Headway Elementary Fourth edition, (Work book). Oxford University Press.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. M. Hewings. English pronouncation in Use (advanced). Cambridge University Press, 2013.<br>2. Malcolm Mann, Steve Taylore – K . Destination B2 Grammar&Vocabulary. Mamillan press, 2006.<br>3. Ship or sheep? An intermediate pronunciation course. Third edition. Ann Baker. Cambridge University Press, 2006. Newspaper Articles to get Teenagers Talking. Upper-intermediate- Advanced. Peter Dainty. Scholastic, 2006.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. www.teachingenglish.org.uk |



| | |
|---|---|
| | 2. www.onestopenglish.com<br>3. www.businessenglishonline.net<br>4. www.elgazette.com<br>5. www.teachertrainingvideos.com<br>6. http://www.learnenglish.org.uk/ |
| 8. | Ushbu fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "30" 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan. |
| 9. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>Xalilova Zaxro Kamoliddin qizi – TISU, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi<br>Mukumov Maxmud Xudayberdiyevich – TISU, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi.<br>Xamrayeva Ra'no Rajabovna – TISU, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi. |
| 10. | **Taqrizchilar:**<br>O'.Xudaynazarova – Termiz davlat universiteti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).<br>A.Xudoyqulov – Termiz davlat universiteti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). |



CamScanner